



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 23-oktabr

579-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 18-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida 2005-yil 21-dekabrda 276-son qaroriga o‘zgartirish kiritish haqida” 2024-yil 10-oktabrdagi 661-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 484-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida” 2024-yil 12-avgustdagi PF-108-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida 2005-yil 21-dekabrda 276-son qaroriga o‘zgartirish kiritish haqida”gi 2024-yil 10-oktabrdagi 661-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 18-oktyabrda 484-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

- Namangan viloyati hokimining 2024-yil 18-oktyabrda 484-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-oktabrdagi 661-son qarori bilan:
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida” 2024-yil 12-avgustdagi PF-108-son Farmoniga muvofiq 2024-yil 1-oktabrdan boshlab tibbiyot xodimlari ish haqi miqdori 15 foizga oshirilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida 2005-yil 21-dekabrda 276-son qaroriga ilovaga muvofiq o‘zgartirish kiritilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
- Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Jo‘rabayev) hamda Tibbiyot birlashmasi (O.Qo‘ldoshev) manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-oktabrdagi 661-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.
- Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov